



UDK: 581.9. 582.8.

Rustam URALOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: uralovrustam385@gmail.com
Akram IBRAGIMOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti
E-mail: akram_i@bk.ru

(PhD)dots. A.M. Begmatov taqrizi asosida

SPECIES OF THE FAMILY (FABACEAE) ARE COMMON IN THE FLORA OF THE LOWER SURKHAN NATURAL GEOGRAPHICAL REGION

Annotation

The list of genera and species of the family (Fabaceae) found in the geographical region of Lower Surkhan is given. The information in this article was based on samples of existing herbarium databases of TASH, LE, literature data, scientific papers and field studies. In total, about 200 herbarium specimens from 1912-2022 were used. (Fabaceae) are mapped according to the species distributed in the flora of the Lower Surkhan natural geographical region.

Key words: Lower Surkhan, representatives of the Fabaceae family, geographical map.

VIDI SEMEYSTVA (FABACEAE) RASPROSTRANENI VO FLORE NIJNESURXANSKOY PRIRODNO- GEOGRAFICHESKOY OBLASTI

Аннотация

Приведен список родов и видов семейства (Fabaceae), встречающихся в географическом районе Нижне Сурхан. Информатсия в этой статье была основана на образцах существующих гербарных баз данных ТАШ, ЛЕ, данных литературы, научных работ и полевых исследований. Всего было использовано около 200 гербарных образцов 1912-2022 гг. (Fabaceae) картированы по видам, распространенным во флоре Сурханского природно-географического района.

Ключевые слова: Нижне Сурхан, представители семейства Фабасеае, географическая карта.

QUYI SURXON TABIIY GEOGRAFIK RAYONI FLORASIDA TARQALGAN (FABACEAE) OILASINING TURKUM TURLARI

Аннотация

Quyí Surxan geografik rayonida uchraydigan (*Fabaceae*) oilasining turkumi va tularining ro'yhati keltirildi. Ushbu maqoladagi ma'lumotlar mavjud gerbariy TASH, LE bazalarining namunalari, adabiyot ma'lumotlari, ilmiy ishlar va dala tadqiqotlari asosida amalga oshirildi. 1912-2022-yillar oralig'idagi umumiy 200 ga yaqin gerbariy namunalardan foydalanildi. (*Fabaceae*) oilasining vakillarining quyí Surxan tabiiy geografik rayoni florasida tarqalgan turalari asosida to'r tizimli xaritasi qilindi.

Kalit so'zlar: Quyí Surxan, *Fabaceae* oilasining vakillari, geografik xarita.

Kirish. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu., Popov V.A. (2016) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida O'zbekiston hududini botanik-geografik rayonlashtirish sxemasi yaratildi [6].

O'zbekistonning janubiy qismi bo'lgan Surxandaryo viloyati 5 ta botanik-geografik rayonlarga bo'lindi: Baysun, Bobotog', Sangardak-Tupalang, Kuxitang va Surxan-Sherobod. Shundan Surxon-Sherobod botanik-geografik rayonining tarkibiga kiruvchi Quyí Surxon asosiy rayonlardan biri hisoblanadi. Mazkur mintaqa O'zbekistonning floristik jihatdan yaxshi o'rganilmagan hududlari tarkibiga kiradi.

Quyí Surxon tabiiy geografik rayoni Amudaryo vodiysini, Surxondaryo vodiysining quyí qismini (Yangi qishloqdan quyida joylashgan) va Sherobod daryo yayilmasining 300-450 m mutlaq balandlikdagi qismini o'z ichiga oladi. Hududining umumiy maydoni 3520.15 kv.km.ni tashkil etadi. Q.Z. Zokirov [6] taklif etgan tasnifi bo'yicha hududning maydoni asosan cho'l mintaqasiga (dengiz sathidan 400-450 m.) to'g'ri keladi.

Mazkur mintaqada aniq maqsadga yo'naltirilgan floristik tadqiqotlar olib borilmagan, dastlabki ma'lumotlar 1881-yildan boshlanib Kapyu va Bonvaloga tegishli (*Capus et Bonvalot*) bo'lib Toshkent-Samarqand, Qarshi-Kelif, Kelif-Sherobod, Sherobod-Guzar Sherobod-Angor, yo'nalishlarida tadqiqot olib borishgan. *Astragalus petunnikowii* Litv. 1905, in Spisok Rast. Gerb. Russk. Fl. Bot. Muz. Rossiisk. Akad. Nauk 5:76. Mazkur turning ilk gerbariy namunasi 1903-yilda N.Adrossov tomonidan «Tirkestanian Buchara. In declivibus arenosoargilosis pr. Farab (ad.fl. Amudarya) 4 may 1903, Androssov» terilgan bo'lib, keyinchalik D.I. Litvinov 1905-yilda yangi tur sifatida fanga kiritgan. V.I. Lipskiy, Kapyu va Bonvalolar tomonidan terilgan gerbariy namunalardan foydalangan holda *Astragalus kelifi* Lipsky (Kelif, 16 (28) III 1881, n0342, *Capus* 14(P.) turini fanga kiritgan [7].

Astragalus rubrigalli Popov 1947, in Bot. Mater. Gerb. Bot. Inst. Komarova Akad. Nauk S.S.S.R. 10:5. Mazkur turning ilk namunalari 1928-yilda D. Ryabov tomonidan terilgan «Kizil-xuraz (k sev.ot g. Kelif). sn 08.05.1928 Ryabov.» bo'lib, ushbu namunalardan foydalangan holda 1947-yilda M.G. Popov yangi tur sifatida fanga kiritgan [9].

Astragalus vvedenskyi Popov 1947, in Bot. Mater. Gerb. Bot. Inst.

Komarova Akad. Nauk S.S.S.R. 10:19. Turning dastlabki namunasini 1927-yilda A.I. Vvedenskiy tomonidan terilgan "Shirabadskaya ekspeditsiya. Shirabadskaya dolina. Vixodi pestrosvetnix porod u Boz-rabat-dolina. 284 13.06.1927 Vvedenskiy A.I." bo'lib, 1947-yilda M.G. Popov mazkur namunalar asosida yangi tur sifatida fanga kiritgan [3].

Bundan keyingi tadqiqot ishi 2022-yilda Surxon-Sherobod botanik-geografik rayoni florasini o'rgangan N. T. Achilovaga tegishli bo'lib, oila bo'yicha 72 tur keltirgan [1].

Tadqiqot ob'ekti va metodlari. Tadqiqot obyekti sifatida Qo'yi Surxon tabiiy geografik rayonida tarqalgan (*Fabaceae*) oilasi turkumi turlari. Quyi Surxon hududida olib borayotgan floristik izlanishlarimiz davomida (*Fabaceae*) oilasining 19 turkum va 48 turga tegishli bo'lgan va O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), Rossiya Fanlar akademiyasining V.L. Komarov nomidagi Botanika instituti (LE) gerbariysi fondlarida saqlanayotgan 200 dan ortiq gerbariy namunalari (1921–2022-yillar oralig'i) o'rganilgan dala tadqiqotlarimiz natijalari (1-jadval). Turlarni identifikatsiyasi "Opredelitel rasteniy Sredney Azii" [4] qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan. Jamlangan barcha namunalar Google Earth Pro 7.1 hamda ArGIS 10.8 dasturi yordamida 5x5 to'r tizimli xaritasi qilindi. Tur va mualliflarining qabul qilingan nomlari International Plants Names Index (www.ipni.org), onlayn platformasi asosida keltirilgan [10].

Olingan natijalar va uning tahlili. Quyi Surxon tabiiy geografik rayoni, Surxon-Sherobod botanik-geografik rayonining tarkibidagi 171 ta indeksni qamrab olgan hudud hisoblanadi. Mazkur rayonning tuprog'i asosan qumli, oxaksimon gips va olajinsli bo'lib, ma'lum bir qismi (Xaudak, Katta qum) qumli yonbag'irliklardan iborat. Mavjud gerbariy namunalari, adabiyot ma'lumotlari, ilmiy ishlar va dala tadqiqotlari natijasida Quyi Surxon tabiiy florasini rayonida turlar asosan Xaudak cho'lida va Kattaqum massivida oila turkum turlari bo'yicha hilma-hilligini ko'rishimiz mumkin. O'rganilayotgan hudud bo'yicha 5x5 to'r tizimli xaritada umumiy 59 ta indekslarda uchrashi aniqlandi. Quyi Surxon rayonida polimorf turlar bo'yicha *Astragalus* L. turkumi seksiyalarining turlari keng tarqalgan bo'lib, boshqa turkumlarga nisbatan dominantlik qilib, 12 ta turni tashkil qiladi.

Shuni alohida takidlash joizki Quyi Surxon hududida olib borilgan dala tadqiqotlarimiz natijasida hududda uchrovchi qizil kitobga kiritilgan *Chesneya tribuloides* Nevski turi-(Kamyoblik darajasi 3.) yangi populatsiya o'choqlari aniqlandi.

Qisqacha tavsifi: Ko'p yillik, baquvvat ildizli, yer bag'irlab o'suvchi poyalarining 30 smgacha yetadi. Barglari 2-3 juft yumaloq. Guldor poyalari barglaridan kalta, alohida gulli. Gulkosachasining uzunligi 5 mm, mayda tishchali, qo'ng'iroqsimon. Gultoji to'q sariq keyinchalik qizil tusga kiradi, dukkagi 11-12 mm, may-avgust oylarida gullab, iyun-sentabr oylarida mevalaydi.

Hududdagi tarqalishi: Hududning Sherobod daryosi xavzasida tarqalgan: "Низкие горы по берегу р. Ширь-Абадь-Дари у города ШирАбадь. 21.04.1915. сн Попов", "Пестросветные низкогорья окр.г. Ширабад. К северу от города, по левому берегу р. Ширабад-даря. На склонах и вершинах холмов. 25.04.1930. Лепешкин С.", 2022-2023-yillarda olib borgan dala tadqiqotlarda Muzrabot tumani Bo'zrabot qishlog'i atrofida "H189." kataklaridan va Sherobod tumani Ho'djigi qabristonidan "K194" kataklaridan kichik populyatsiyasi aniqlandi va gerbariy namunalari yig'ildi.

Quyi Surxon hududida olib borayotgan floristik izlanishlarimiz davomida (*Fabaceae*) oilasining 19 turkum va 48 turlardan iborat ekanligi aniqlandi. Dastlabki natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

(1-jadval).

	Oila		Turkum		Tur
1	Fabaceae	1	Lagonichium Bieb.	1	Prosopis farcta (Banks & Sol.) J.F.Macbr.=Lagonychium farctum (Banks & Sol.) Bobrov
		2	Sophora L.	2	Sophora alopecuroides L.=Vexibia alopecuroides (L.) Yakovlev
		3	Ononis L.	3	Sophora lehmannii (Bunge) Yakovlev=Ammothamnus lehmanni Bunge
		4	Trigonella L.	4	Ononis antiquorum L.
				5	Trigonella grandiflora Bunge
				6	Trigonella geminiflora Bunge
				7	Trigonella orthoceras Kar. & Kir.
				8	Trigonella arcuata C.A. Mey.
		5	Medicago L.	9	Medicago monantha (C.A.Mey.) Trautv.=Trigonella geminiflora Bunge
				10	Medicago orthoceras (Kar. & Kir.) Trautv.=Trigonella orthoceras Kar. et Kir.
				11	Medicago minima (L.) Bartal.
				12	Medicago sativa subsp. Sativa=Medicago transoxana Vassilcz.
				13	Medicago lanigera C.Winkl. & B.Fedtsch.
				14	Medicago lupulina L.
		6	Melilotus Mill	15	Melilotus officinalis (L.) Lam.
				16	Melilotus indicus (L.) All.
				17	Melilotus dentatus (Waldst. & Kit.) Pers.
		7	Trifolium L.	18	Trifolium fragiferum L.
				19	Trifolium pratense L.
				20	Trifolium repens L.
		8	Lotus L.	21	Lotus sergievskiae Kamelin & Kovalevsk.
		9	Cullen Medik.	22	Cullen drupacea (Bunge) C.H.Stirt.=Psoralea drupacea Bunge
		10	Sphaerophysa DC.		Sphaerophysa salsula (Pall.) DC.
		11	Smirnovia Bunge	24	Smirnovia turkestanica Bunge
		12	Halimodendron Fisch. ex DC.	25	Caragana halodendron (Pall.)=Halimodendron halodendron (Pall.) Voss
		13	Chesneya Lindl.	26	Chesneya tribuloides Nevski
		14	Astragalus L.	27	Astragalus campylorrhynchus Fisch. & C.A.Mey.
				28	Astragalus chiwensis Bunge
				29	Astragalus crenatus Schult.=Astragalus corrugatus Bertol.
				30	Astragalus harpilobus Kar. & Kir.
				31	Astragalus excedens Popov & Kult
				32	Astragalus filicaulis Fisch. & C.A.Mey. ex Ledeb.
				33	Astragalus flexus Fisch.
				34	Astragalus ophiocarpus Bunge
				35	Astragalus kahircicus DC.
				36	Astragalus kelifi Lipsky
				37	Astragalus rumpens Meffert
				38	Astragalus stalinskyi Sirj.
				39	Astragalus vvedenskyi Popov
		15	Glycyrrhiza L.	40	Glycyrrhiza glabra L.
		16	Onobrychis Mill.	41	Onobrychis chorassanica Bunge ex Boiss.

		17	Alhagi Gagneb.	42	Alhagi maurorum subsp. canescens (Regel) Yakovlev=Alhagi canescens (Regel) Shap. ex Keller & Shap.
				43	Alhagi maurorum subsp. kirghisorum (Schrenk) Yakovlev=Alhagi kirghisorum Schrenk ex Fisch. & C. A. Mey.
				44	Alhagi maurorum Medik.=Alhagi pseudalhagi subsp. persarum (Boiss. & Buhse) Takht.
				45	Alhagi maurorum Medik.=Alhagi persarum Boiss. & Buhse
	18	Vicia L.		46	Vicia angustifolia Reichard
				47	Vicia hyrcanica Fisch. et Mey.
	19	Lathyrus L.		48	Lathyrus cicera L.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Quyi Surxon florasida ikki urug' pallali o'simliklarning yetakchi oilalardan biri bo'lgan (Fabaceae) oilasining 19 turkumga oid 48 ta turlar uchraydi. Ularning dastlabki tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur flora Turon past tekisliklari florsi tarkibidagi ikki urug' pallalilarning taksonomik spektriga monand keladi. Quyi Surxon florasida tekislikda joylashganligi va cho'l zona bo'lganligi sababli adir, tog' va yaylov mintaqalarda o'suvchi ko'p o'simlik turlari bu hududda juda kam uchraydi. Quyi Surxon hududida maqsadli ilmiy tadqiqotlar juda kam olib borilganligi va hudud florasining kam o'rganilganligi sabab, bu hudud florasini o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borish kerakligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari 2022-2023-yillarda olib borgan dala tadqiqotlarimizda oilaga kiruvchi qizil kitobga kiritilgan *Chesneya tribuloides* Nevski turi- (Kamyoblik darajasi 3.) Muzrabot tumani Bo'zrabot qishlog'i atrofidan "H189." kataklaridan va Sherabod tumani Ho'djgi qabristonidan "K194" kataklaridan kichik populyatsiyasi aniqlanishi quyi Surxon hududida yanada keng ko'lamli tadqiqotlar olib boorish kerakligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Achilova N.T. Surxon-sherabod botanik-geografik florasida: kand.biol.nauk. –Karshi 2021. – S. 48
2. Peterson A., Levichev I.G. & Peterson J. Systematics of *Gagea* and *Lloydia* (Liliaceae) and infrageneric classification of *Gagea* based on molecular and morphological data. Molecular Phylogenetics and evolution T.46, 2008-yy. —P. 446–465. <http://dx.doi.org/10.1016/j.ympev.2007.11.016>.
3. Goncharov N.F. Rod *Astragalus* L. – Astragal. Flora Uzbekistana.
a. Tashkent: AN UzSSR, 1955, T. III. – S. 473-672.
4. Kamelin R.V. Rod *Astragalus* L. (seksiya *Xiphidium*) – Astragal (seksiya *Xiphidium*). Opredelitel rasteniy Sredney Azii. – Tashkent: Fan, 1981. T. VI. – S. 193-212.
5. Kurbaniyazova G.T., Levichev I.G. Istoriya izucheniya roda *Gagea* Salisb. vo flore Uzbekistana// Scientific Bulletin. Series: Biological Research, № 4(64), Andijan 2022, – P. 109-115.
6. Zakirov K.Z. K probleme zonalnosti i terminologii botanicheskoy geografii v Sredney Azi. Tashkent, blyuten SAGU, 1947. Выр 25. S. 25-30.
7. Zakirov K.Z. Flora i rastitelnost basseyna r. Zarafshan. – Tashkent: AN UzSSR, 1955. – 207 s.
8. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Y., Popov V.A. Botaniko-geograficheskogo rayonirovanie Uzbekistana // Botanicheskie jurnal. – Sankt-Peterburg: Nauka, – 2016. №10 (101). – S. 1105-1130.
9. Popova L.I. Osobnosti v poyasom raspredeleni rastitelnosti Yugo-zapadnykh otrogov Gissarskogo xrebt (v predelax Baysunskogo rayona Surxandarinskogo oblasti). Dis... kand. biol. nauk. – Frunze. 1950. – 300 s.
10. Internet resurslari.
11. <https://www.binran.ru/resources/current/gagearum/nameslist-rus.html>